

NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULLARI TUSHUNCHASI, TURLARI VA IQTISODIY NIZOLARNI HAL QILISHDAGI AFZALLIKLARI

Aliyev Axmadjon

ahmadjonaliyeva@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14175541>

Annotatsiya. Ushbu tezisning maqsadi shundan iboratki, unda iqtisodiy nizolarni hal etishda nizolarni hal qilishning muqobil usullari tushunchasi, turlari, nizolarni hal etishda NMH afzalliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mediatsiya, mediator, yarashuv, vositachilik, arbitraj, hakamlilik sudlari, kelishuv.

Kirish

Nizolarni hal qilishning muqobil (NMH) usullari har bir jamiyat va davlatning tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy omillari ta'sirida rivojlanib kelgan.

NMH – bu vakolatli suddan tashqari yuzaga kelgan nizolarni hal qilishga qaratilgan qonun, tomonlarning kelishuvi yoki ichki lokal hujjatlarda belgilangan tartib-taomillar, usullar va mexanizmlardir.

NMH usullari barcha turdagi ziddiyatli holatlarda keng qo'llaniladi. Nizo taraflarining ba'zilar mediatorlar (professional mediatorlar va no professional mediator) ishtirokini jalb qilsa, boshqa tomonlari esa hakamlilik sudi yoki arbitrajga murojaat qiladi yoxud mustaqil yarashishga erishadi. NMH usullari tushunchasi va turlari qonun bilan aniq belgilanmagan, lekin huquqiy doktrinada ishlab chiqilgan. Ba'zi suddan tashqari kelishuv tartib-taomillari tomonlar uchun majburiy bo'lishi mumkin, boshqalari esa, aksincha, faqat nizolashayotgan taraflarning ixtiyoriy iltimosiga binoan amalga oshiriladi. Muqobil hal qilish usullarining turlari ro'yxati hech qayerda o'rnatilmagan va hech narsa bilan chegaralanmagan.

Asosiy qism

Nizolarni muqobil hal qilish jarayonida jahon amaliyotiga nazar solsak, nizolarni hal qilishning muqobil turlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ulardan keng tarqalganlaridan misol qilib keltirsak:

1. mediatsiya;

2. yarashuv;
3. vositachilik;
4. arbitraj;
5. hakamlik sudlari;
6. kelishuv.

Mediatsiya — bu kelib chiqqan nizoni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator ko‘magida hal qilish usulidir¹.

Mediatsiya – bu yarashuv tartib-taomilining maxsus shakli bo‘lib, unda taraflar uchinchi, betaraf, xolis mediator ko‘magida konsensus (yakdillik, kelishuv)ga intilib, ular o‘rtasidagi jiddiy kelishmovchiliklarning o‘zaro manfaatli yechimini birgalikda ishlab chiqadi. Shuningdek, mediatsiya – tomonlarning ixtiyoriy roziligi asosida o‘zaro maqbul yechimga erishish uchun kelishuv usulidir².

Mediatsiya orqali hal etilgan nizolarning aksariyati, ya’ni 80 foizdan ortig‘i, taraflar o‘rtasida tuzilgan kelishuv bilan yakunlanadi. Ushbu kelishuv ko‘pincha rasmiy sud hujjatlariga tenglashtiriladi va ijro etilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa, mediatsiya jarayoni ko‘plab mamlakatlarda nafaqat nizolarni tezroq hal qilishga yordam beradi, balki sud tizimining yukini ham kamaytiradi, bu esa taraflar uchun vaqt va mablag‘ni tejaydi³.

Vositachilik — bu nizolarni hal qilish jarayonida tomonlar o‘rtasida muloqotni osonlashtiruvchi va muammoni hal qilishga yordam beruvchi uchinchi shaxsning ishtirokidir.

Mediatsiya va vositachilik o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, vositachilar ko‘pincha nizo predmeti hisoblangan bilim sohasi bo‘yicha ekspert bilimiga ega bo‘ladi. Ayrim turdagi nizolarda vositachi huquqiy ma’lumotini taqdim etishga majbur. Bu taraflarga nizo predmetini tartibga soluvchi normativ doiraga muvofiq, har qanday kelishuvni imzolash imkoniyatini beradi. Shuning uchun kelishuv tartibi tavsiyaviy jihatni o‘zida aks ettirishi mumkin.

Vositachilik ham, mediatsiya ham nizoli masalalarni bildirish hamda nizo ishtirokchilari uchun maqbul keladigan kelishuv variantlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ushbu barcha tartiblar ancha taraflarga qulay bo‘lib, qabul qilingan qarorlar taraflarning roziligiga asoslanishi lozim. Bu holatlar ishtirokchi foydasiga, odatda, hal qiladigan an’anaviy sud jarayoniga qarama-qarshidir.

¹O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni

²M.M. Mamasiddiqov, A.A. Xakberdiyev - Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Toshkent: TDYU, 2024. B. 14, 77

³Перспективы развития медиации в Республике Башкортостан: обзор круглого стола // Евразийская адвокатура. 2 (3). 2013.

Yarashtiruv – bu taraflarni uchinchi shaxs (xolis, betaraf) ga murojaat qilgan holda, nizoni hal etish tartib-taomili hisoblanadi. Bunday holatda xolis taraflarga nizo yuzasidan to'g'ri yechim topa oladigan maslahatlar va nizoning yechimi bo'yicha o'z takliflarini beradi.

Yarashuv nafaqat huquq, balki psixologiya, muzokaralar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish va bilishni ham talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi.

Hakamlik sudi (doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muvaqqat hakamlik sudi) — fuqarolik huquqiy munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolarni, shu jumladan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida vujudga keluvchi iqtisodiy nizolarni hal etuvchi nodavlat organ.⁴

Hakamlik sudi – taraflar tomonidan saylangan yoki ular tomonidan belgilangan tartibda tayinlangan, taraflarning kelishuvi bo'yicha ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan nizoni ko'rib chiquvchi va hal qiluvchi, shuningdek, ushbu taraflar belgilagan tartibda qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi hakamlik sudi yoki muayyan nizoni hal qilish uchun taraflar tomonidan tuzilgan muvaqqat hakamlik sudidir.

Biroq yuqoridagi NMH usullaridan farqli o'laroq, hakamlik sudi nizo bo'yicha taraflar uchun yakuniy va majburiy hisoblangan hal qiluv qarorini qabul qilish huquqiga ega. Shu sababli hakamlik sudi boshqa NMHlarga qaraganda rasmiy kuchga ega.

E.A.Vinogradovning fikricha, hakamlik sudi huquqiy nizolarni hal qilishda tomonlarning ixtiyori bilan qonun yoki xalqaro shartnoma bilan belgilanib qo'yilgan davlat sudi tomonidan emas, balki nizo taraflarga nisbatan uchinchi shaxs yoki shaxslar (hakamlik sudi) tomonidan amalga oshiriladigan, taraflarning o'zlari tanlagan yoki ular bilan kelishilgan tartibda saylangan (tayinlangan) shaklidir⁵.

Arbitraj – doimiy arbitraj muassasasi yoki muayyan nizoni hal qilish uchun tashkil etiladigan arbitraj sudi tomonidan amalga oshirilishidan qat'i nazar, nizoni hal etish tartib-taomili hisoblanadi. Ushbu taomilda ham nizolashuvchi taraflar nizoni hal etish uchun o'zlari tanlagan xolis/arbitr(lar)ga murojaat qilishi mumkin.

Biroq yuqoridagi NMH usullaridan farqli o'laroq, arbitraj yakunida arbitr(lar) nizo bo'yicha taraflar uchun yakuniy va majburiy hisoblangan qaror qabul qilish huquqiga ega. Shu sababli arbitraj boshqa NMHlarga qaraganda hakamlik sudlari kabitir⁶.

Kelishuv bitimlari – huquqiy munosabat subyektlari, umuman olganda, jamiyat a'zolarining o'zaro qarama-qarshiliklarini bartaraf etishdagi maqbul vositalardan biri hisoblanib,

⁴ O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni

⁵ Арбитражный процесс. Учебник / Под ред. В.Ш. Яркова. – М.,1999. – С. 405 (автор главы Виноградова Е.А.).

⁶ М.М. Мамасиддиқов, А.А. Хакберdiyev - Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Toshkent: TDYU, 2024.

tarafklar nizoni hal etish shartlarini kelishuv asosida, o'z manfaatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zaro muzokaralar orqali belgilaydi.

Professor M.Mamasiddiqovning ta'kidlashicha, kelishuv bitimi tarafklar o'rtasidagi murosa, ya'ni fuqarolik huquqidagi shartnoma bo'lib xizmat qiladi. Sudga murojaat etmay tuzilgan kelishuv bitimi suddan tashqari hisoblanadi. Suddan tashqari tuzilgan kelishuv bitimi, agarda tarafdardan biri shartnomani bajarishdan bosh tortsa yoki bajarmasa, ikkinchi tarafni shu munosabat bilan sudga murojaat etish huquqidan mahrum etmaydi. Bunday bitim sud tomonidan tasdiqlangandan so'nggina yuridik kuchga ega hisoblanadi⁷.

NMH usullarini qo'llash orqali nizolarni hal etish samarali bo'lishi uchun nizolashuvchi tarafdarda nizoni hal etishga moyillik, ya'ni ularda nizoni hal etish uchun xohish-istak bo'lishi kerak. Aks holda, NMH usullari samara bermasligi mumkin. Agarda har bir taraf men haqman deb o'z pozitsiyasida qat'iy turib olgan bo'lsa, ular, yaxshisi, vaqtini behuda ketkazmasdan vakolatli sudga murojaat qilgani ma'qul hisoblanadi.

NMHning yana bir xususiyatlaridan biri nizoni hal etish uchun jalb etilgan xolis(lar) malakasiga oid bo'lib, xalqaro tajribaga asosan, xolis yuridik ma'lumotga ega bo'lishi shart emas, u psixolog, injener, iqtisodchi va boshqa kasb egasi bo'lishi mumkin. Ya'ni uning nizoni hal etish uchun yetarli malakaga ega bo'lishi yetarli. Ko'p NMH usullarining tabiati shundan iboratki, ular egiluvchan va moslashuvchan bo'lganligi sababli ularni qat'iy huquqiy tartibga solish maqsadga muvofiq emas.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa qilsak, nizolarni muqobil hal etish tizimi vakolatli suddan tashqari hal etishning milliy tizimidagi yangilik bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki ilgari faqat iqtisodiy nizolarning subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy nizolarni hal etishning muqobil usuli orqali hal qilingan bo'lsa, endilikda undan fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shu jumladan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolar, shuningdek, yakka mehnat nizolari va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar hamda kengroq ko'lamdagi nizolarni ham hal etishda foydalanish mumkin.

REFERENCES

1. M.M. Mamasiddiqov, A.A. Xakberdiyev - Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Toshkent: TDYU, 2024. B. 14, 77

⁷ Fuqarolik protsessual ququqi. Darslik. Mualliflar jamoasi // Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof. M.M. Mamasiddiqov. yu.f.n. prof. D.Yu. Habibullayev. – Toshkent. "Lesson press" nashriyoti, 2020. – B. 282.

2. Перспективы развития медиации в Республике Башкортостан: обзор круглого стола // Евразийская адвокатура. 2 (3). 2013.
3. Арбитражный процесс. Учебник / Под ред. В.Ш. Яркова. – М.,1999. – С. 405 (автор главы Виноградова Е.А.).
4. M.M. Mamasiddiqov, A.A. Xakberdiyev - Nizolarni muqobil hal etish usullari / Darslik. Toshkent: TDYU, 2024.
5. Fuqarolik protsessual ququqi. Darslik. Mualliflar jamoasi // Mas'ul muharrirlar: yu.f.d., prof. M.M. Mamasiddiqov. yu.f.n. prof. D.Yu. Habibullayev. – Toshkent. "Lesson press" nashriyoti, 2020. – B. 282.

Normativ huquqiy hujjatlar:

6. O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni
7. O'zbekiston Respublikasining "Hakamlik sudlari to'g'risida"gi Qonuni